

# TORTUV ELEKTR MOTORINING CHO'LG'AMLARI ORASIDAGI BOG'LANISHLARNI DIAGNOSTIKA QILISH HOLATI

**Shadmonxodjayev Murodilla Shuxratillayevich**

*Toshkent davlat transport universiteti “Elektr harakat tarkibi” kafedrasi assistenti,*

[smurodilla@gmail.com](mailto:smurodilla@gmail.com)

**Miryakubov Anvar Mirkadirovich**

*Toshkent davlat transport universiteti “Elektr harakat tarkibi” kafedrasi katta o'qituvchisi,*

[miranvar90@mail.ru](mailto:miranvar90@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada tortuv elektr motorining chulg'amlari orasidagi bog'lanishlarni diagnostikalash holati ko'rib chiqilgan. Tortuv elektr motorlari chulg'amlari orasidagi bog'lanishlarni holatini aniqlash ishlab chiqildi. Taklif qilinayotgan diagnostikalash vaziyatidagi ta'minot manbai strukturasi va uning parametrlari: funksional hamda soddalashtirilgan sxemasi, ish bajarilishidagi ketma-ketlik, o'zgartgichlarning kerakli boshqaruvi burchagi va qurilmalarning chidamliligi hisobi.


**Kalit so'zlar:** ta'minot manbai, tortuv elektr motori, chulg'amlari orasidagi bog'lanish, qo'zg'atish chulg'ami, o'rta ta'mir, joriy ta'mir, kapital ta'mir, tiristor, qizdirish toki manbai.

Tortuv elektr motorlarining (TEM) ishdan chiqishlarining taxminan 7% cho'lg'amlar orasidagi bog'lanishlarning (ChOB) buzilishi bilan bog'liq[1].

Ushbu maqolaning maqsadi TEM ChOB nazorat qilish tehnologik bo'linmasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Elektrovoz va elektr poyezdlarning elektr mashinalarini ta'mirlash Qoidalariga asosan TEM davriy ravishda rejali tartibda depoda joriy ta'mirlanishi (JT-3), ta'mirlash zavodlarida o'rta (O'T) va kapital ta'mirlanishi (KT) zarur.


ChOB holatini nazorat qilish depo sharoitida amalga oshiriladigan JT-3 hajnidagi ta'mirlash vaqtida TEM qismlarga ajratilgandan so'ng bajarish taklif qilinadi.



**1-rasm. TEM ta'mirlashning bosqichlari sxemasi**

TEM ta'miri deponing elektr mashinalar sexida amalga oshiriladi. Shu sababdan ChOB holatini nazorat qilish tehnologik bo'linmasini elektr mashinalar sexida korpuslarni ta'mirlash bo'linmasida joylashtirish 1-rasm nazarda tutiladi.

ChOB holatining nazoratini 2-rasmdagi ishlab chiqilgan algoritmi asosida o'tkaziladi.




### ***2-rasm. ChOB nazorat usulining algoritmi***

Qizdirish toki Iq ni TEM nominal tokidan ikki marta katta qiymatda tanlash tavsiya etiladi. Qizdirish tokini qo'zg'atish cho'lg'amidan (QCh) o'tkazish vaqtি 10-15 daqiqani tashkil etadi. ChOB nuqsonli joyi ko'proq qiziydi. Nuqson joyi belgilanadi [2].

QCh qarshiligini o'lhashni taqqoslash qurilmalari (misol uchun o'zgarmas tok ko'prigi) yordamida o'lhash tavsiya etiladi.

ChOB holatini aniqlash uchun uning haroratini kontaktsiz usul bilan aniqlash imkonini beruvchi asboblardan foydalanish maqsadga muvofiq. Qo'yilgan vazifani bajarish uchun «КЕЛЬВИН» infraqizil termometri mos keladi: o'lchanadigan harorat oralig'i -300C dan 2000C va undan yuqori; o'lhash vaqtি 1 sek.

QCh ni qizdirish uchun 3-rasmdagi tiristorli qizdirish toki manbai (QTM) ishlab chiqilgan.



3-rasm. Tiristorli QTM ning tuzilmaviy sxemasi

Qizdirish tokining qiymati A ampermetr yordamida amalga oshiriladi. QTM tuzilishi va parametrlari o'zgarmas tok shahar atrofi elektr poyezdlarining TEM ChOB larni nazorat qilish maqsadida foydalanish uchun moslab tanlangan. ( $R_{OCh}=0,151$  Om,  $I_q=560$  A, QTM kirish kuchlanishi 380/220 V, 50 Gs). Shuningdek, o'zgartirgichning rostlash burchagi aniqlangan:

$$\alpha = \arccos \frac{U_{d\alpha}}{K_{SX} U_f} = 80^\circ$$

bu yerda  $U_{d\alpha} = I_q \cdot R_{OCh}$ -  $\alpha$  rostlash burchagidagi to'g'rilangan kuchlanish, V;

$K_{SX} = 2,34$ -qabul qilingan to'g'rilash sxemasiga bog'liq koefitsiyent;

$U_f$ - ta'minot manbaining nominal fazalar kuchlanishi.

Bundan tashqari, QTM ning ishonchliligi baholangan. QTM ning ishonchliligi ehtimoli quyidagicha aniqlanadi [3]:

$$P(t) = e^{-\lambda_q \cdot t}$$

bu yerda  $\lambda_q = \frac{1}{\sum N_i \lambda_i}$  - QTM ishdan chiqish intensivligi;

$N_i$ - i-chi turdag elementlar soni;

$\lambda_i$ - i-chi elementlarning ishdan chiqish intensivligi;

t - joriy vaqt.

QTM ning birinchi nosozlikgacha o'rtacha xizmat muddati hisoblangan

$$T = \frac{1}{\lambda_q} = 33000 \text{ soat.}$$


Hisob-kitob natijalari 1-jadvalga kiritilgan.

### 1-jadval

#### QTM ning ishonchliligi ehtimoli natijalari

Nº	QTM elementlari nomlanishi	N <sub>i</sub> , ta.	$\lambda_i$ , 1/soat	$N_i \lambda_i$ , 1/soat
1	Tiristorlar	6	$0,5 \cdot 10^{-6}$	$6 \times 0,5 \cdot 10^{-6} = 3 \cdot 10^{-6}$
2	Bog'lanishlar	5	$0,002 \cdot 10^{-5}$	$5 \times 0,002 \cdot 10^{-5} = 0,01 \cdot 10^{-5}$
				$\Sigma N_i \lambda_i = 3,01 \cdot 10^{-5}$

$P(t)$  bog'liklik grafigi 4-rasmda keltirilgan.



*4-rasm. Ishdan chiqmasdan ishlashning vaqtga bog'liklik grafigi*

Ishlab chiqilgan ChOB holatini nazorat qilish bo'linmasi TEM ishonchligini oshirish, elektr harakat tarkibidan foydalanish sarf-harajatlarini qisqartirish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Исмаилов Ш.К., Смирнов В.П., Худоногов А.М. Диагностирование изоляции тяговых электродвигателей локомотивов и обеспечение оптимального температурно-влажностного режима ее эксплуатации. М.: 2012, 270с.
- Зеленченко А.П. Устройства диагностики тяговых двигателей электрического подвижного состава. Учебное пособие. М.: 2002, 37с.
- Зеленченко А. П. Надежность электрического подвижного состава. Учебное пособие. / А. П. Зеленченко - СПб.: ПГУПС, 2001 - 36 с.